

O'ZBEKISTONDA MAHALLA YETTILIGINI TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI HAQIDA

Shavqatulloyev Do'stmuhammad

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, student.

Тел:998995644673 e-mail: ma6069054@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15522092>

Annotatsiya. Mahallalarning boshqaruv xodimlari soni soliqchi va ijtimoiy xodim qo'shilishi hisobiga 5 tadan 7 taga ko'paydi. Mahallaning o'zida 70 dan ortiq masala, jumladan, moddiy yordam va kreditlar hal etiladi. Tizim esa to'liq raqamlashtiriladi. Ushbu maqolada O'zbekistonda Prezident tashabbusi bilan joriy etilgan "Mahalla yettiligi" va "Hokim yordamchilari" instituti tahlil qilinadi. Maqolada ularning tashkil etilish sabablari, huquqiy asoslari, asosiy vazifalari va amalga oshirgan ishlari bataysil yoritiladi. Shuningdek, tizim joriy etilgach, erishilgan yutuqlar, mavjud muammolar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Maqola sohaga doir qonunchilik hujjatlariga tayangan holda yozilgan bo'lib, amaliy natijalar asosida baholashga harakat qilinadi.

"Mahalla yettiligi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-sonli farmoni bilan tashkil etilgan. Ushbu farmon "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" deb nomlanadi. "Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat „beshlik tizimi“ tashkil etildi. Lekin ularning o'zaro muvofiq ishlashida kamchiliklar, juda ko'p takrorlanishlar bor. Ijtimoiy maqsaddagi mablag'lar ba'zan samarasiz yo'naltirilyapti. Ehtiyojmand aholining masalasini hal qilish viloyat va respublika idorasiga bog'lanib qolgan. Mahalla xodimlari faoliyatini baholash mezoni yo'q. Ularning ko'p vaqtি „qog'oz to'ldirish“ va majlislarga ketyapti", — dedi prezident.

Shavkat Mirziyoyev mahalladagi beshlik "mahalla yettiligi"ga aylanishini bildirdi. Bunda ularning safiga soliqchi va ijtimoiy xodim ham kiritiladi.

Bular:

— mahalla raisi – Mahalladagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash. Mahallada tinchlik, osoyishtalik va o'zaro hurmat muhitini saqlash. Ijtimoiy ziddiyatlar va nizolarni oldindan aniqlab, ularni bartaraf etishda vositachi bo'lish. Aholining ehtiyojlarini aniqlash va manzilli yordam ko'rsatishEhtiyojmand oilalarni aniqlash, ijtimoiy yordamlar bo'yicha tavsiyalar berish.

Nogironlar, yolg'iz keksalar va kam ta'minlangan fuqarolarga e'tibor qaratish.

Xonodonlar xatlovini yuritish. Mahalladagi har bir xonodon holatini o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni tahlil qilish.Huquqbazarliklarning oldini olishda ishtiroy etish. Yoshlar tarbiyasi va jinoyatchilikka qarshi kurashda faol bo'lish. Bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish. Aholini mehnatga jalb etish, tomorqadan foydalanishni targ'ib qilish. Hokim yordamchisi bilan hamkorlikda tadbirkorlik loyihibalariga fuqarolarni yo'naltirish.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish. Ayollarning bandligini ta'minlash va ijtimoiy muammolarini hal qilishda yordam berish. Davlat organlari bilan hamkorlik qilish Mahalla yettiligi a'zolari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, muktab, poliklinika, hokim

yordamchisi va boshqalar bilan hamkorlikda ishlash. Mahalladagi jamoatchilik hayotini tashkil etish Hashar, bayramlar, targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini tashkil etish. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqaruvini faollashtirish.;

— hokim yordamchisi-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PQ-31-sonli qaroriga muvofiq, hokim yordamchilari lavozimi joriy etilgan. Ularning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: Mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni xonadonbay o‘rganish, aholining bandlik darajasi, daromad manbalari, tomorqa yerlaridan foydalanish holatini tahlil qilish. Aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni tashkil etish, uy sharoitida dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik, asalarichilik, urug‘chilik, ko‘chatchilik, gulchilik kabi faoliyat turlarini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish. “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarning muammolarini o‘rganish va hal qilish. Kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, tadbirkorlikka va o‘zini o‘zi band qilish faoliyatiga jalb etish bo‘yicha manzilli ko‘maklashish. Mahallada mavjud bo‘sh turgan obyektlar va yer maydonlarini aniqlash, ulardan samarali foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Hokim yordamchilarining faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, ularni moddiy-texnika va zamonaviy axborot vositalari (mebel, kompyuter to‘plami, aloqa, Internet va boshqalar) bilan ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘rilgan. Shuningdek, ular “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga ulangan, masofadan turib hisobotlar taqdim etish hamda video konferensiya aloqa shaklida yig‘ilishlarda ishtirot etish imkonini beruvchi maxsus planshetlar bilan ta’minlangan.

Hokim yordamchilarining faoliyati KPI tizimi asosida baholanadi. Ularning ish faoliyatida yaxshi natijalarga erishganlari uchun har oyda mukofotlash, turar joy ijarasi xarajatlarini qoplash, transport xarajatlarini kompensatsiya qilish kabi rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilgan.

- yoshlar yetakchisi – yoshlarni sport, musiqa va to‘garaklarga jalb etish;
- xotin-qizlar faoli – ayollarni tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilikka jalb qilish;
- Profilaktika inspektori Mahallada huquqbazarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsiz muhitni ta’minlash, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishda ko‘maklashish;
- soliq xodimi – mahalladagi imkoniyatlarni ishga solib, soliq bazasini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirishga hamda o‘zini o‘zi band qilganlarga kichik biznes toifasiga o‘tishga ko‘maklashish;
- ijtimoiy xodim – yolg‘iz keksa, nogiron va boshqa muhtojlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish kabi aniq vazifalar bilan shug‘ullanish.

Hozir O‘zbekistonda jami 9452 ta mahalla mavjud bo‘lib aholini boshqarish uchun yaratilgan “mahalla yettiligi” tizimi dunyoning birorta davlatida yo‘q. “Bugungi kunda 51 137 nafar xodim yettilikda faoliyat yurityapti”. “Bundan olti yil oldin mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 24 foiz bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda 12–13 foizga tushdi”.

“Mahalla yettiligi” tizimi joriy etilgandan so‘ng, O‘zbekistonda mahalla boshqaruvi va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohalarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Quyida ushbu tizimning asosiy natijalari keltirilgan:

Hozirda mamlakat bo‘yicha 9452 ta mahallada 51 137 nafar xodim “mahalla yettiligi” tarkibida faoliyat yuritmoqda. Bu tizim har bir mahallada ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal qilishga xizmat qilmoqda.

2024-yil may oyida Vazirlar Mahkamasining 292-sonli qarori bilan “mahalla yettiligi” a’zolarining faoliyati eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida baholanishi belgilandi. Mahalla raislari bu baholashda 20% ball berish huquqiga ega. KPI natijalariga ko‘ra, xodimlar moddiy rag‘batlantiriladi .

2025-yilgi Prezident qaroriga muvofiq, “mahalla yettiligi” a’zolari jinoyatchilikning barvaqt oldini olishda faol ishtirok etmoqda. Kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarda “namunali xavfsiz ko‘cha” va “yo‘lak”lar tashkil etilmoqda. Bunday tashabbuslar ijobiy natija bergan hollarda, xodimlar qo‘srimcha moddiy rag‘batlantiriladi .

Mahallalarda 70 dan ortiq masala, jumladan, moddiy yordam, kreditlar, subsidiya ajratish kabi xizmatlar bevosita mahalla darajasida hal etilmoqda. Bu esa aholining davlat xizmatlariga murojaat qilishini soddallashtirdi.

Surxondaryo viloyati misolida "Mahalla yettiligi" faoliyatining natijalari haqida qaraydigan bo’lsak

2024-yilning 3-choragida Surxondaryo viloyatida "Mahalla yettiligi" bilan hamkorlikda aholi bandligini ta’minalash va tadbirkorlikni rivojlantirishda yuqori natijadorlikka erishildi.

Viloyatda 223 ta mакtab va 97 ta bog‘chada issiqxonalar va parrandachilik faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu orqali ta’lim muassasalari qo‘srimcha daromad manbaiga ega bo‘lib, o‘quvchilar amaliy bilimlarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Hokim yordamchilari tomonidan mahallalarda xonadonlar xatlovdan o‘tkazilib, ehtiyojmand oilalar aniqlanib, ularga manzilli yordam ko‘rsatildi. Shuningdek, tomorqa yerlaridan samarali foydalanish bo‘yicha aholiga tavsiyalar berildi. "Mahalla yettiligi" a’zolarining faoliyati eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida baholanadi. Bu baholash natijalariga ko‘ra, ular moddiy rag‘batlantiriladi.

Qumqo‘rg‘on tumanida hokim yordamchisi o‘zgalarning elektron imzosidan foydalaniб, 132 million so‘m kredit olgani aniqlangan. Bu holat hokim yordamchilari faoliyatida shaffoflik va nazoratni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

REFERENCES

1. Surxondaryo.mehnat.uz
2. Lex.uz: 292-son 18.05.2024 “Mahalla yettiligi”.
3. Lex.uz: KQ-706-IV-sonli Oliy majlis senati qarori.
4. Gazeta.uz
5. Yuz.uz
6. Daryo.uz
7. Kun.uz
8. Review.uz